

O‘zbekiston tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlash amaliyoti va ularning kredit riskini boshqarishdagi o‘rni

Salohiddin Muhiddin o‘g‘li Elchiboyev
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlash va kredit risklarini boshqarish tizimi tahlil qilinadi. Kredit portfelidagi uzoq muddatli kreditlar ulushining ortishi fonida muammoli kreditlar (NPL) darajasining barqarorligi va ayrim banklarda yuqoriligi, risklarni baholash va monitoring qilish tizimlarining zaif joylari aniqlangan. Tadqiqotda kredit riskini kamaytirish bo‘yicha ilg‘or xalqaro tajribalarga, xususan “erta ogohlantirish tizimi”, “muammoli aktivlarni boshqarish kompaniyalari” va portfel darajasida risklarni boshqarish yondashuvlariga urg‘u berilgan. Xulosa sifatida, zamonaviy yondashuvlarni joriy etish va institutsional takomillashtirish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: tijorat banklari, muammoli kreditlar (NPL), kredit riski, kredit portfeli, risklarni boshqarish tizimi, kredit siyosati, monitoring tizimi, stress-test metodologiyasi, moliyaviy barqarorlik, kredit restrukturizatsiyasi

The practice of working with non-performing loans in commercial banks of Uzbekistan and their role in credit risk management

Salokhiddin Mukhiddin ugli Elchiboev
Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan

Abstract: This article analyzes the system of handling non-performing loans (NPLs) and managing credit risks in commercial banks of Uzbekistan. Amid the increasing share of long-term loans in credit portfolios, the stability - and in some cases, the rise - of NPL levels in certain banks has been observed, along with weaknesses in credit risk assessment and monitoring systems. The study emphasizes advanced international practices for mitigating credit risk, such as early warning systems, asset management companies (AMCs), and portfolio-level risk management approaches. It concludes by justifying the need to implement modern approaches and strengthen institutional frameworks.

Keywords: commercial banks, non-performing loans (NPLs), credit risk, credit portfolio, risk management system, credit policy, monitoring system, stress-testing methodology, financial stability, credit restructuring

KIRISH

O'zbekiston bank tizimi taraqqiyotining yangi bosqichi zamonaviy axborot asrining boshlanishi va iqtisodiyotning raqamlashtirilishi bilan uzviy bog'liq holda kechmoqda. Ilgari banklarning moliyaviy barqarorligi asosan miqdoriy ko'rsatkichlar asosida baholangan bo'lsa, bugungi kunda bu yondashuvlar o'zgarishni talab qilmoqda. Endilikda banklar faoliyatining barqarorligi ularning turli xil risklarni, ayniqsa, kredit va bozor risklarini samarali boshqarish darajasi bilan belgilanmoqda.

Mazkur o'zgarishlar, avvalo, global iqtisodiy integratsiya jarayonlarining chuqurlashuvi, moliyaviy xizmatlar bozoriga raqamli texnologiyalarning keng kirib borishi hamda inson xulq-atvori va qaror qabul qilish mexanizmlarini hisobga oluvchi iqtisodiy yondashuvlar ahamiyatining oshishi bilan bog'liqdir.

O'zbekiston bank amaliyotida masofaviy xizmatlar joriy qilinishi, bank faoliyatini liberallashtirish va davlat banklari ulushini bosqichma-bosqich xususiy sektorga o'tkazishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar ushbu yo'nalishdagi muhim qadamlardir. 2025-yildan boshlab barcha tijorat banklarida transformatsiya dasturlari amalga oshirilmoqda. Bu esa bank kapitali, resurs bazasi va daromadlarini oshirish bilan birga, risklarni chuqurroq va sifat jihatdan baholash zaruratini ham yuzaga keltirmoqda.

Xususan, davlat ulushining kamaytirilishi natijasida banklar o'z mijozlarining moliyaviy holatini mustaqil baholab, kredit risklarini o'z kapitali hisobidan qoplashga tayyor bo'lmoqda. Bu esa banklar uchun risklarni chuqur boshqarish va tahlil qilish imkonini yaratadi. Shu bois, hozirgi islohotlar davrida tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlash amaliyotini chuqur o'rganish va ularning kredit riskini boshqarishdagi o'rni tahlil qilish dolzarb ilmiy-amaliy masala sifatida qaralmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlash va ularning kredit riskini boshqarish tizimini takomillashtirish moliyaviy barqarorlik va bank sektorining ishonchliligini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. So'nggi o'n yilliklarda nan xalqaro, nan milliy miqyosda bu borada chuqur ilmiy tadqiqotlarga asoslangan yondashuvlar ishlab chiqilgan. O'zbekiston kontekstidagi banklar faoliyotida ham muammoli kreditlarning dinamikasini, ularni boshqarish mexanizmlarini va institutsional muhit ta'sirini tahlil qiluvchi manbalar mavjud.

Tadqiqotlar ko'rsatdiki, makroiqtisodiy beqarorlik - inflyatsiya, YaIM o'sishi sur'ati - muammoli kreditlar ko'lamiga bilan uzviy bog'liqdir. Shu bilan birga, bank ichki

ko'rsatkichlari - kapital yetarliligi, rentabellik, likvidlik - ham NPL darajasini belgilaridan biri hisoblanadi (Laeven L., 2020, Demirgüç-Kunt A., 2013).

L.Laeven tomonidan qabul qilingan yondashuv asosida, epidemiya va iqtisodiy inqirozlar vaqtida NPLlarning sezilarli darajada ko'tarilishi kuzatiladi. U NPLlarni kamaytirish uchun kreditor institutlarning kapitali mustahkamligini oshirishni hamda ikki bosqichli monitoring tizimini joriy qilishni tavsiya etadi (Laeven L., 2020).

A.Demirgüç-Kunt esa "Measuring Banking Risk and Stability" nomli tadqiqotida bank barqarorligini ta'minlash uchun NPLlarni optimal darajada ushlab turish, ularga qarshi kapital zahiralarini shakllantirish va stress-test metodlarini tatbiq etish zarur ekanini ta'kidlaydi (Demirgüç-Kunt A., 2013).

O.Isakov O'zbekiston tijorat banklarida muammoli kreditlar darajasining makroiqtisodiy omillar bilan bog'liqligini tahlil qilgan. Uning VAR modeli asosida olib borgan tadqiqotida, YaIM o'sishi NPL ko'rsatkichiga salbiy, foiz stavkalari va valyuta kursi esa ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan (Isakov O., 2024).

J.Rustamov 2017-2023 yillardagi muammoli kreditlar dinamikasini o'rgangan va ayniqsa pandemiya davrida, xususan 2021 yilda, NPL hajmining sezilarli darajada oshganini qayd etgan. Uning tahlillarida sanoat va qishloq xo'jaligi sektori muammoli kreditlar bo'yicha yetakchi o'rinda turgani ko'rsatilgan (Rustamov J., 2025).

Jahon banki tomonidan tayyorlangan "Banking Sector Risk Assessment" hisobotida muammoli kreditlar bank kapitalining pasayishiga va likvidlik yetishmovchiligiga olib keluvchi asosiy xavf omili sifatida ko'rsatilgan. Ushbu manbada banklar uchun stress-testlar va risk monitoring tizimlarining zarurligi alohida ta'kidlangan (World Bank, 2021).

A.Kozarić va E.Žunić-Dželihodžić tomonidan olib borilgan tadqiqotda muammoli kreditlarning shakllanishida inflyatsiya, almashuv kursi va iqtisodiy o'sish sur'atlari muhim omillar sifatida ko'rsatilgan. Tadqiqotda Bosniya va Gersegovinadagi bank sektoridan misollar keltirilib, ularning barqarorlik darajasi kredit sifati bilan uzviy bog'liqligi ko'rsatib berilgan (Kozarić A., Žunić-Dželihodžić E., 2020).

M.Erdas va Z. Ezanoglu G20 davlatlari misolida bank-spetsifik omillar - kapital yetarliligi, ROA va ROE ko'rsatkichlarining NPL darajalariga ta'sirini tahlil qilgan. Ularning tadqiqotida yuqori darajadagi rentabellik va kuchli kapital bazasi muammoli kreditlar hajmini kamaytirishda muhim rol o'ynashi aniqlangan (Erdas M., Ezanoglu Z., 2022).

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistik ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil boshida tijorat banklaridagi o'rtacha muammoli kreditlar ulushi 4,5 foizni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich yillik kesimda nisbatan barqaror bo'lsa-da, ba'zi banklarda xavfli darajada yuqori bo'lgan (cbu.uz, 2025).

Mazkur adabiyotlar sharhi O'zbekiston tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlash amaliyoti va ularning kredit riskini boshqarishdagi rolini taxlil qilish

uchun yetarli ilmiy asos yaratadi. Ularning xulosalari kelgusidagi amaliy tadbirlar, institutlararo koordinatsiya mexanizmlari va texnologik yangilanishlar bilan boyitilishi mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda tijorat banklari kredit portfelida uzoq muddatli kreditlarning ulushi barqaror ravishda oshib bormoqda. Bu holat banklarning investitsion faoliyatga yo'naltirilgan strategiyasidan dalolat beradi. Xususan, moliyaviy jihatdan nochor holatdagi korxonalarni sog'lomlashtirish, ularning ishlab chiqarish salohiyatini yangilash va modernizatsiya qilish, iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan vositalardan biridir.

Kredit risklarini samarali boshqarish tizimi bir qator asosiy elementlardan tashkil topadi. Ular quyidagilardan iborat:

- kredit riskiga nisbatan bardoshlilik darajasini belgilovchi risk ishtahasi;
- kredit siyosati va risklarni boshqarish konsepsiyasi;
- qaror qabul qilish va kredit ajratish mexanizmlari;
- kredit jarayonlarini kuzatish va monitoring qilish tartibi;
- kechiktirilgan yoki muammoli qarzlarni aniqlash va ular bilan ishlash usullari;
- risklarni baholashda stress-test metodologiyasi;
- risklar bo'yicha to'liq va tizimli hisobotlarni shakllantirish.

Risk ishtahasi bayonoti bankning umumiy strategiyasi va biznes-rejasi asosida kredit riskiga tayyorlik darajasini belgilaydi. Bu bayonot sifat ko'rinishida bo'lishi mumkin, lekin miqdoriy ko'rsatkichlar - masalan, ajratilgan kreditlar ulushi, NPL darajasining o'zgarishi, kredit riskining mukofot darajasi yoki konsentratsiyalanish darajasi (mahsulotlar, qarz oluvchilar, tarmoqlar bo'yicha) orqali ifodalanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Risklarni boshqarish tizimi, shuningdek, qarzdor tomon (kontragent) bilan bog'liq tavakkalchiliklarni aniqlash va ularni cheklashning ichki mexanizmlarini ham qamrab oladi. Bu tizim kontragentga xos risklarni aniqlash, baholash va ularning ta'sirini kamaytirish usullarini o'z ichiga olgan bo'lishi zarur.

O'zbekiston tijorat banklarining kredit portfeli tarkibini o'rganish natijasida aniqlanishicha, oxirgi yillarda uzoq muddatli kreditlar ulushi bosqichma-bosqich ortib bormoqda. Bu tendensiya banklarning real sektor subyektlarini qo'llab-quvvatlashga va investitsiyaviy loyihalarni moliyalashtirishga bo'lgan e'tiborini kuchaytirayotganidan darak beradi. Biroq kredit portfelining sifati, xususan muammoli kreditlar (NPL) darajasi, banklar oldida jiddiy risk omili sifatida saqlanib qolmoqda.

Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil boshida O'zbekistondagi tijorat banklarida NPL darajasi o'rtacha 4,5 foizni tashkil qilgan bo'lsa-da, ayrim banklarda bu ko'rsatkich 10 foizdan yuqori bo'lgan holatlar kuzatilgan. Eng ko'p muammoli kreditlar sanoat, qurilish va xizmat ko'rsatish sohalariga to'g'ri kelgan. Bu esa

banklarning sektorlararo risk diversifikatsiyasini yetarli darajada amalga oshirmayotganligini ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kredit risklarini samarali boshqarish uchun banklar tomonidan quyidagi yondashuvlar keng qo'llanilmoqda:

- kredit ajratishdan oldin mijozlarning moliyaviy holatini chuqur tahlil qilish va scoring tizimlarini qo'llash;
- kreditni tasdiqlash jarayonida kredit qo'mitasi qarorlarini qat'iy huquqiy asosga tayantirish;
- kredit muddati davomida doimiy monitoring tizimini joriy qilish;
- muammoli qarzдорlarni aniqlash va ularga nisbatan qayta tuzilma berish yoki undirish mexanizmlarini faollashtirish.

Shuningdek, stress-test natijalari asosida ba'zi banklarda kredit riskiga nisbatan chidamlilik darajasi past ekani aniqlangan. Xususan, valyuta kursi yoki foiz stavkalaridagi o'zgarishlar kredit portfelining sifatsizlanishiga olib kelishi mumkin. Bu esa makroiqtisodiy beqarorlik sharoitida NPL hajmining ortish xavfini kuchaytiradi.

Hududiy tahlillar esa, Toshkent shahri va sanoatlashgan viloyatlar (masalan, Toshkent viloyati, Navoiy, Farg'ona) muammoli kreditlar soni bo'yicha yuqori ulushni egallaganini ko'rsatadi. Bu holat u yerda faoliyat yuritayotgan yirik korxonalarning moliyaviy holatidagi muammolar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Ilmiy adabiyotlar asosida olib borilgan solishtirma tahlil natijalariga ko'ra, banklarning kapital yetarliligi, rentabellik ko'rsatkichlari (ROA, ROE) va likvidlik darajasi muammoli kreditlar hajmiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Rentabellik yuqori bo'lgan banklarda muammoli kreditlar nisbatan past bo'lgan.

Umuman olganda, kredit risklarini boshqarish tizimining zaif joylari quyidagicha aniqlanmoqda:

- kredit monitoring tizimlarining texnologik jihatdan sustligi;
- kredit riskiga oid hisobotlarning noaniq va umumiy shaklda tuzilishi;
- muammoli kreditlar bo'yicha sud va banklararo tartibotlarning murakkabligi.

Bundan tashqari, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, muammoli kreditlarni kamaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan strategik choralar, xususan qayta moliyalashtirish, restrukturizatsiya va qayta tiklash mexanizmlari ayrim tijorat banklarida samarali natijalar bermoqda. Misol uchun, ayrim yirik davlat banklarida muammoli kreditlar hajmi 2023-2024 yillarda 3-4 foiz bandga kamaygan, bu esa monitoring va tahlil tizimlarining nisbatan yaxshilanganligini ko'rsatadi.

Biroq, ayrim kichik va o'rta banklarda muammoli kreditlar bilan ishlashda huquqiy asoslarning yetarli emasligi, qarzдор bilan ishlashda malakali kadrlarning yetishmasligi, hamda banklararo kredit tarixini baholash mexanizmlarining zaifligi kabi muammolar saqlanib qolmoqda. Bu esa kredit portfelining sifat jihatidan yaxshilanishiga to'sqinlik qilmoqda.

Qiyosiy jihatdan olganda, rivojlangan davlatlar bank amaliyotida kredit risklarini boshqarishning zamonaviy usullari keng qo'llaniladi. Masalan:

– AQSh va Yevropa banklarida “early warning system” (erta ogohlantirish tizimi) joriy etilgan bo'lib, bu tizim mijozning moliyaviy holati yomonlashishiga doir ilk signalni aniqlaydi;

– Yaponiya, Janubiy Koreya tajribasida esa muammoli kreditlar bo'yicha sudgacha va suddan keyingi nizolarni hal etish uchun maxsus arbitraj institutlari tashkil etilgan;

– Shuningdek, xalqaro amaliyotda risklarni “portfel darajasida” (portfolio-level risk management) boshqarish orqali sektoral va mahsulotlardagi konsentratsiya kamaytiriladi.

O'zbekistonda esa ushbu yondashuvlar hali to'liq joriy qilinmagan, lekin 2022-2025 yillar davomida Markaziy bank tashabbusi bilan bosqichma-bosqich “kredit riskining integratsiyalashgan modeli”ni tatbiq etish rejalashtirilgan. Bu model bankning ichki nazorat tizimlari, kredit siyosati, skor baholash tizimi va qarzidorlar bilan muloqotni yagona raqamli platformada birlashtirishni ko'zda tutadi.

Tadqiqotda, shuningdek, kredit riskini kamaytirishda “muammoli aktivlarni boshqarish kompaniyalari” (Asset Management Companies - AMC) ni yaratish zarurati ham asoslab beriladi. Bu tajriba Xitoy, Malayziya va Tailandda muammoli kreditlar inqirozini bartaraf etishda muvaffaqiyatli qo'llanilgan.

Shuningdek, tahlillarda qayd etilganidek, ayrim banklar kreditlarni faqat garov ta'minoti asosida ajratishga urg'u bermoqda, bu esa kredit sifatini emas, balki miqdorini nazorat qilishga olib kelmoqda. Natijada, kredit sifati va rentabelligi o'rtasida muvozanat buzilmoqda. Bunday yondashuv o'rniga kredit oluvchining to'lov qobiliyati va biznes modeli asosida qaror qabul qilish samaraliroq ekani ta'kidlanmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlash va kredit risklarini boshqarish tizimi bosqichma-bosqich takomillashib borayotganiga qaramay, hali ham yechimini kutayotgan muammolar mavjud. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, uzoq muddatli kreditlarning ulushi oshib borayotgani banklarning investitsiyaviy faolligini ifodalasa-da, aynan shu kreditlar kredit portfeli sifati va risk darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Muammoli kreditlar darajasi ayrim banklarda yuqoriligicha qolmoqda, bu esa ularning risklarni aniqlash, baholash va ularni samarali boshqarish bo'yicha ichki tizimlari to'liq ishlamayotganini anglatadi. Risklarni boshqarish komponentlarining (risk ishtahasi, stress-test, monitoring va hisobot tizimi) amalda qo'llanilishi banklar kesimida bir xil emas, bu esa tizimni yanada institutsional va texnologik jihatdan kuchaytirishni taqozo etadi.

Xalqaro amaliyotdan kelib chiqib, O'zbekistonda ham kredit risklarini portfel darajasida boshqarish, erta ogohlantirish tizimlarini joriy etish va muammoli aktivlarni boshqarish bo'yicha maxsus institutlar faoliyatini yo'lga qo'yish zarur. Bundan tashqari, kredit berishda qarz oluvchining moliyaviy holati va biznes modelini chuqur tahlil qilish, garovga ortiqcha tayanmaslik muhim omil sifatida baholanmoqda.

Shunday qilib, muammoli kreditlar bilan ishlash va kredit risklarini boshqarish tizimining takomillashuvi nafaqat banklar barqarorligiga, balki mamlakat moliyaviy tizimining umumiy sog'lomligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Kelgusida ushbu sohadagi islohotlar chuqurlashtirilishi, zamonaviy yondashuvlar va xalqaro tajribalar keng joriy etilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Demirgüç-Kunt, A. (2013). Measuring Banking Risk and Stability. The World Bank.
2. Erdas, M., & Ezanoglu, Z. (2022). Impact of Bank-Specific Factors on Non-Performing Loans: Evidence from G20 Countries. *International Journal of Economics and Financial Issues*, 12(2), 113-127.
3. Isakov, O. (2024). Forecasting NPL of Commercial Banks in Uzbekistan Using VAR Model. Retrieved from https://www.researchgate.net/publication/390182678_FORECASTING_NPL_OF_COMMERCIAL_BANKS_IN_UZBEKISTAN_USING_VAR_MODEL
4. Kozarić, A., & Žunić-Dželihodžić, E. (2020). Macroeconomic Determinants of Non-Performing Loans: Evidence from Bosnia and Herzegovina. *South East European Journal of Economics and Business*, 15(2), 24-38.
5. Laeven, L. (2020). Banking Sector Stability and the Dynamics of Non-Performing Loans. European Central Bank Working Paper Series No. 2401.
6. Rustamov, J. (2025). Trends and Patterns of Accumulation of Non Performing Loans in the Banking Sector of Uzbekistan. *Journal of Central Asian Economic Studies*, 9(1), 38-51.
7. World Bank. (2021). Banking Sector Risk Assessment. The World Bank Group. Retrieved from <https://www.worldbank.org>
8. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). Muammoli kreditlar bo'yicha statistik ma'lumotlar. Manba: <https://cbu.uz>